

**“IKKI KARRA IKKI-BESH” ASARIDA QO‘SHOQVOY OBRAZI***O‘zbekiston-Finlandiya pedagogik instituti, 2-bosqich talabasi**Imomova Ruxshona Obidjon qizi**Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи assistenti**Imomqulova Gulchehra Norboboyevna*

**Annotatsiya:** *O‘zbek adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri O‘tkir Hoshimovdir. Uning ijodi xalq hayoti, oddiy insonlar taqdiri, ijtimoiyadolat va insoniylik g‘oyalari bilan boy. Yozuvchining “Ikki karra ikki-besh” hajviy qissasi ham shunday chuqur ma’no va falsafiy qatlamlarga ega bo‘lgan asarlardan biridir. Asar nomining o‘ziyoq o‘quvchilarni qiziqtiradi. Axir ikki karra ikki besh emas-ku. Ammo yozuvchi bu oddiy matematik haqiqat orqali jamiyatdagi haqiqat va yolg‘on,adolat va zo‘ravonlik orasidagi ziddiyatni ochib beradi. Bu asarning bosh qahramoni bo‘lgan Qo‘shoqvoyning taqdiri orqali hayotning past-u balandliklari mohirona ochib beriladi. Qahramonlarning qismati o‘quvchini kuldirib qolmay, chuqur o‘yga ham toldiradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Qo‘shoqvoy, poraxo ‘rlik, rais buva, kommunizm, Shodivoy.*

Yigirmanchi asrning 60-yillarida zamонави о‘zbek nasri xiyoboniga bahoriy ayyomlar kirib keldi. Unga qadar ham katta adiblik maktabi qad rostlab turgan edi, bu maktabning yalovbardorlari zalvorli povest va romanlarini peshma-pesh chop etishayotgan, “kitobxo‘r” shinavandalar oltmish minglab “tiraj”larni ko‘rdim demasdi. Juda ko‘plab odamlarning xayoliyu ko‘nglida “Adabiyot – shu!” degan tushuncha aqidaga aylanib ketgandi. Birdan povest qabilida yozilganu, lekin janri “qissa” deb ko‘rsatilgan asarlar paydo bo‘ldi. Bu ikki atamani qiyosan tahlil qilganlar, unisi boshqa-bunisi boshqa yoki ikkovi egizak degan tezislarni ilgari surib doktorlik dissertatsiyalar ham yozildi. Ilmiy bahs-munozaralar o‘z yo‘liga, lekin, nazarimda, 60-yillar qissalari adabiyotimizga bamisoli bahorning mayin, yoqimli havosini olib keldi. Butun bir milliy adabiyotda yangi yo‘nalishni boshlab berish hammaga ham nasib



etavermaydi. Muayyan ijodkordagi favqulodda yangicha tafakkur piravordida butun xalq badiiy tafakkurida o'zgarish yasaydi, badiiy didini yangilaydi, buning natijasida kitobxonlarning nafaqat adabiyotga, shu bilan birga hayotga, odamlarga bo'lган qarashlarida favqulodda o'zgarishlar yuz beradi. O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Shukur Xolmirzaev, O'tkir Hoshimovning nomlari o'sha davr o'zbek nasrini yangilovchilari sifatida tarixdan o'rinn oldi. [5]

O'tkir Hoshimov o'zining "Ikki karra ikki -besh" nomli hajviy qissasi orqali ham kitobxonlar mehrini yana bir bor qozona olgan ijodkordir. Asar sodda tilda yozilgan bo'lib, uni barcha birdek tushuna oladi. Asar voqealari ostida Sho'ro davrining chirkin siyosati, shu davrdagi mahalliy amaldorlarning xalq boshiga solgan kulfatlari yotadi. 1987-yilda yozilgan asar orqali jamiyatdagi kamchiliklar, shu davrdagi mazlum xalqning qiyin nahvoli, og'ir mehnati hamda bu ish uchun yetarlicha imtiyozlar berilmagan oddiy odamlar hayoti tasvirlangan.

Adabiyot bu juda murakkab san'at shaklidir. Unda turfa xil insonlar taqdiri va ularning his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini o'quvchining yuragiga yetkazib berish yozuvchidan juda katta mahorat talab qiladi. Asarning bosh qahramoni bo'lgan Qo'shoqvoy juda hazilkash, sodda bir ko'ngli sof yigit bo'ladi. Ammo asar davomida uning ko'plab qiyinchiliklarga uchraganini ko'rishimiz mumkin. Bu asar davomida do'stlikning eng oliy ko'rinishi ham qalamga olingan. Ya'ni bunda oddiy oila farzandi Qo'shoqvoy hamda raisning erkatoy o'g'li Shodivoylarning bir-biriga bo'lgan samimiyligi hamda hech qanday manfaatlarsiz sof do'stligi ta'riflangan. Bunga misol tariqasida Shodivoy uyidagi tut barglarining barchasini ota-onasining ruxsatisiz do'sti uchun bergenligi, rais buva bu ikki do'stni Toshkentga o'qishga joylab qo'yaman deb olib borib, ammo Qo'shoqvoyni o'qishga joylamasdan qaytib kelganida ham bu ikki do'stning chin do'stligiga putr yetmaydi. Yillar o'tib barchaadolatsizliklarning boshida turgan kimsalarning ayblarini fosh qilganda siyosatchilar Shodivoy yordamida Qo'shoqvoyni qamatmoqchi bo'lishadi. Ammo bu yerda ham ikki do'st g'alaba qozonadi. Siyosatchilarning g'arazli niyati amalga oshmay qoladi. O'sha davrda amaldorlarning qilgan ishlari, kirdikorlarini ularning xatti-harakatlari odamgarchilikga mutlaqo to'g'ri kelmasligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Adolatsiz amaldorlar boylik



to‘plash, Sovet hukumatiga o‘zlarini yaxshi ko‘rsatish uchun odam qilishi mumkin bo‘limgan eng chirkin ishlarni amalga oshirishga tayyor ekanini bilib olishimiz mumkin. Bu holning yaqqol dalili sifatida amaldorlarning barcha kirdikorlarini oshkor qilmoqchi bo‘lgan Qo‘snoqvoyni jinniga chiqarib 4 oy davomida jinnixonada saqlashadi. Sovet rahbariyatiga o‘z hayotini bag‘ishlagan rais Toshmamat Alimov ham afsuski nohaq edi. U o‘sma paytdagi sotsializmning tirik qurboni bo‘ldi va asar oxirida opz pushaymonlariga qorishdi. Barcha asarlarda bo‘lgani kabi “Ikki karra ikki-besh” asarida ham ijobiy hamda salbiy obrazlar mavjud. Asar bosh qahramoni Qo‘snoqvoy va uning eng yaqin do‘sti Shodivoy, Qo‘snoqvoyning otasi Salimjon aka, Tursunboy aka, fizika o‘qituvchisi Usmon aka, Muhabbatxon kabilar asardagi ijobiy qahramonlar hisoblanadi. Qo‘snoqvoyning otasi Salimjon aka insofli, diyonatli birovning haqqiga ko‘z tikmaydigankishi bo‘lgan. U o‘g‘liga hech qachon hisobdan adashmaslikni, o‘zgalar haqqini yemaslikni uqtiradi. Qo‘snoqvoy ham otasi bergen nasihatlariga qulog tutgan holda ulg‘aydi. Ammo uning bir qiziq odati bor edi. U hisob- kitob qilganda lof-qof qilib qo‘shib gapirardi. U birinchi sinfga chiqguncha otasi unga hisob-kitobni yaxshigina o‘rgatgan edi. Ammo hali ham uning lof-qof qilib gapirish odati qolmagan edi. Ana shu odati sababli ham o‘zining sinf rahbari bo‘lgan Muhabbat opaning ishdan ketishiga sababchi bo‘ladi. U matematika darsida o‘qituvchisi bergen misollarga lof-qof qilib javob beradi. O‘qituvchisining bundan jaxli chiqadi va Qo‘snoqvoy va uning otasini direktoring xonasiga chaqirtiradi. Salimjon akaga Qo‘snoqvoyning matematika fanidan umuman bilmasligini aytib shikoyat qiladi. Ammo maktab direktori Salimjon akaga qarab, yo‘q Salimjon aka,biz Qo‘snoqvoyni yomon demaymiz, o‘zi zo‘r bola. Intizomi durust, zehni o‘tkir. Qaysi kuni xo‘rozning rasmini chizgan ekan. Ko‘rib havasim keldi. O‘zini ham xuddi tirikka o‘xshativoribdi, Azamat!E otangga raxmat,devordim![14] Direktor o‘qituvchining gapiga ishonmay Qo‘snoqvoyga matematikadan savollar beradi.Hattoki,katta sinf o‘quvchilari zo‘rg‘a yecha oladigan mashqlarni beradi.Ammo,qarabsizki Qo‘snoqvoy barcha savollarga lof-qof qilmay to‘g‘ri javob beradi. O‘qituvchisi bundan hayron qoladi. Direktor Muhabbat opani koyiydi. Shunday aqli bolani bilmasvoyga chiqardingizmi deb. Bu gaplar Muhabbatxonga og‘ir botadi va ishdan ketadi. Asardagi eng ijobiy insonlardan



biri fizika o‘qituvchisi Usmon Qilishevdir. U qattiqqo‘l, talabchan, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan. U har doim xalq uchun manfaatli bo‘lgan ishlarni qilgan. U boshqa o‘qituvchilarga o‘xshab darslarda va imtihonlarda o‘quvchilardan nazorat savollari olmasdan baho qo‘yib bermaydi. Usmon aka har doim hamma ishni haqqoniy va adolatli bo‘lishini istaydi. Hattoki, rais buva ham unga bolalardan imtihon olmay bahosini qo‘yib berishini va bolalarni dalaga chiqarishini so‘raydi. Usmon aka esa hech qachon bunday ish qilmasligini, o‘quvchilar haqqoniy baholanishini aytadi. U o‘quvchilarni instituga poraxo‘rlik bilan emas, o‘z bilimi bilan kirishini istaydi. Ammo o‘qituvchining bu xohishlari rais buvaga yoqmaydi. Rais buva o‘quvchilarni bilim olishini emas, ularni dalaga chiqib ishlashini xohlaydi. Rais buva o‘gli Shodivoyni pora yordamida o‘qishga kiritishni reja qilgan bo‘ladi va bu ishini amalga ham oshiradi. Yuqoridagi ikki muallim timsoli orqali har bir davrda ham yurt istiqboli, kelajak avlodning savodiga befarq bo‘lmaydigan odamlar har bir zamonda bor ekanini ko‘rishimiz mumkin. Lekin bu davrda ularning mehnati qadrlanmadni va o‘zini Sovet “fidoyisi” deb hisoblaydigan amaldorlar tomonidan ishdan olindi. Asarda “Ig‘vogar” nomini olgan Ergashev aslida ig‘vogar emas balki u rais va uning barcha sheriklarining kirdikorlarini fosh qilish maqsadida qilgan barcha harakatlari besamar ketdi. U Qo‘shoqvoya haq gaplarni aytadi, lekin Qo‘shoqvoy raisning gapiga kirib Ergashevni kaltaklab daladan haydab yuboradi. Ammo vaqtlar o‘tib Qo‘shoqvoy barchasini anglab yetgach “Ig‘vogar” so‘zlarini haq ekanini tushundi. Qo‘shoqvoya eng alam qilarlisi shuki u ham oila tarafdan, ham amaldorlar tarafdan xiyonatga uchraydi. Uning rafiqasi Nargiza ham unga rais orqali xiyonat qilgan.(Xuddi “Ikki eshik orasi”dagi Ra’no) kabi. Rais nafaqat Qo‘shoqvoy, balki Tursunboy akaning ham oilasiga putr yetishiga sabab bo‘lgan. Bu kabiadolatsizlik har qanday erkak kishining bo‘ynini egib qo‘yadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asarda qalamga olingan voqealar o‘sha davrning dolzarb masalalari bo‘lib, ularning aksariyati hozir ham o‘z yechimini to‘laligicha topmagan. Bir so‘z bilan aytganda ushbu asar yengil o‘qilishidan tashqari o‘quvchini chuqur o‘yga toldirish xususiyatiga ega. O‘tkir Hoshimovning boshqa asarlari ham shu asari kabi yengil o‘qilishiga qaramay pur ma’noga ega asarlardir.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.O‘tkir Hoshimov “Ikki karra ikki-besh”-Toshkent. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. 369-b.
- 2.O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”romani, Toshkent, yangi asr avlodi 2016. 749-b.
4. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/otkir-hoshimov-75-yoshda.html>